



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 1-avgust, seshanba,
91 (23.812)-son

**KUN
HIKMATI**

Maqsadga
intilish -
donolik, istakka
ergashish esa
nodonlikdir

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

Davlatimiz mustaqilligi ana shu shior bilan nishonlanadi

— Bundan o'ttiz bir yil muqaddam jahon xaritasida "O'zbekiston Respublikasi" degan yangi, mustaqil davlat paydo bo'ldi. Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimov boshchiligidagi mamlakatimizning milliy mustaqilligini dunyoga e'lon qildik. Oradan yillar, asrlar o'tadi. Lekin milliy davlatchiligimizni, o'zligimiz va insoniy haq-huquqlarimizni tiklab bergan, barcha yutuq va marralarimizning zamini bo'lgan Mustaqillik kuni biz uchun, kelgusi avlodlarimiz uchun doimo eng ulug', eng aziz bayram bo'lib qoladi, — degandi davlatimiz mustaqilligining 31 yilligiga bag'ishlangan bayram shodiyonasida Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Darhaqiqat, jamiyat hayotida, har birimizning kundalik turmushimizda bu ayyomning o'рни, qadri bo'lakcha. Shu bois Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorini yurtdoshlarimiz zo'r mamnuniat bilan kutib olishdi.

To'g'ri, hali qiladigan ishlarimiz juda ko'p. Ammo ular bayramda aytiladigan masalalar emas. Chunki ular erishilgan yutuqlar oldida yechimi aniq yumushlardir. Zotan, yurt tinchligi, to'kin-sochinlik, kun sayin kengayayotgan sharoitdan ko'nglimiz to'lyapti. Muhimi, hech bir soha e'tibordan chetda qolayotgani yo'q.

Shu o'rinda ta'kidlash lozim, istiqloqning keyingi 5-6 yilida yurtimizda yangilanish, rivojlanish yangi bosqichga o'tdi. Birgina misol, bugun odamlarimiz boy bo'lish yo'lini bildi, dunyo bozoriga kirish mashqini egalladi. Ayni jihatning o'ziyoq tanlagan yo'limiz to'g'riligini, mustaqillikning bizga bergan imkoniyatini ko'rsatib bermaydimi?!

Oddiy aytganda, endi qornimiz to'q, ustimiz but. Allohga shukr! Ammo oldimizda shunday bir vazifa borki, undan ko'z yumolmaymiz. Ayni shu sababli davlatimiz rahbari imzolagan hujjatda "Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak uchun poydevor", degan hayotiy shiorning mohiyati va ahamiyatini ochib berish alohida belgilab qo'yildi.

Yuqorida qayd qilinganidek, "... Mustaqillik kuni biz uchun, kelgusi avlodlarimiz uchun doimo eng ulug', eng aziz bayram bo'lib qoladi".

Albatta, mustaqillik — eng ulug' va eng aziz ne'mat bo'lib, mamlakatdagi bunyodkorlik, jo'shqinlikning asosiy sababi, eng avvalo, istiqloq bergan huquq va erkinlik, barcha sohalarida amalga oshirilayotgan oqilona islohotlar poydevori hisoblanadi. Ammo istiqloq, erk va bugungi farovon kunlar qanday mashaqqatlar bilan qo'lga kiritilganidan hamma ham xabardormi? Xo'sh, bundan xabardorlar

dunyodagi murakkab siyosiy-iqtisodiy vaziyatga qaramasdan, boshlangan islohotlarni izchil davom ettirib, yangi bosqichga olib chiqishda biz uchun barcha yutuqlarimiz omili, kuch-g'ayrat, g'urur va ilhom manbai bo'lib xizmat qilayotganining qadriga yetayptimi?

Ko'p uzoqqa bormaylik, kuni kecha samarqandlik shaxmatchi o'quvchilar Osiyo chempionatida 1 ta oltin, 5 ta kumush medaliga sazovor bo'ldi. Shu o'g'il-qizlarning ota-onasi ularning yoshida bunday muvaffaqiyatni tasavvur qila olardilarmi? Yo'q, albatta.

Demak, istiqloqning qadri, ahamiyatini keng targ'ib qilish, tarannum etishda biz, ijodkorlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklanadi. Shu sabab vazifa emas, rag'bat o'laroq yondashish choralarini ko'rilmogda. Xususan, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda "Ona diyor ranglar jilodasi", "Vatan uchun yashaylik!", "Eng ulug', eng aziz" kabi an'anaviy ko'rik-tanlovlarni yuqori darajada o'tkazish zarur.

Sodda, oqko'ngil xalqimiz bir tanu bir jon bo'lishga ham, yakdil va ahil bo'lib harakat qilishga ham, halol-pok bo'lib, yaxshi niyat bilan kechayu kunduz mehnat qilishga ham tayyor xalq. Shunga monand Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugun dunyo tamaddunida o'zbeklar tarixining yangi sahifasini yaratish davri keldi. Yangi O'zbekistonda yangi qarashlar, yangi fikrlar, halollik va poklik bilan yangi hayot quraylik! Zero, Vatan degan jonfido pirovardida o'zi ham Vatanning bir bo'lagiga aylanaajak!

Shubha yo'qki, tinchlik va osoyishtalik, to'qchilik va farovonlikning qadrini tushunib yetgan yurtdoshlarimiz Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz ikki yilligini Yangi O'zbekistonning bugungi taraqqiyot darajasi, shonu shuhratiga mos holda munosib kutib oladilar.

Davlatimiz mustaqilligining 32 yilligini munosib nishonlash uchun hududlarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari ko'lami yanada kengaytirilib, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalari holatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.



MAHALLADAN XONADONGACHA OBOD BO'LADI

Mamlakatimizda ana shunday ezgu harakat boshlandi

Vazirlar Mahkamasi-ning 21-iyuldagi farmoyishi asosida "Obodonlashtirish oyligi" doirasida mahallalar, aholi punktlari, ko'chalar, ko'p qavatli binolar va hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyoratgohlar va qabristonlar tartibga keltiriladi. Muhandislik infratuzilmalari obyektlarida tozalik va ozodalik ta'minlanadi. Avtomobil yo'li va temiryo'l bo'ylarida obodonlashtirish

ko'rsatish korxonalarini, bino va inshootlarning tashqi qiyofasini yaxshilash, ularning hududi va tutash maydonlarini tartibga keltirish, ijtimoiy soha obyektlari hududlarini obodonlashtirish, barcha turarjoy mavzolari, mahallalar va yo'l bo'ylarida gul ko'chatlarini ekish, daraxtlarini parvarishlash, shakl berish ishlari bajariladi.

Irrigatsiya va melioratsiya obyektlari, drenaj tizimlari va favvoralarini tozalash va tartibga keltirish, suv obyektlarining qirg'oqbo'yi hududlarini obodonlashtiriladi. Ishlab chiqarish va xizmat

chiqarish infratuzilma obyektlarini, shuningdek, yangi sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalarini foydalanishga topshirish choralarini ko'rildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalar, pensionerlar va nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz qariyalar, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalarning turarjoy sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish choralarini ko'rildi.

Davlat maqsadli dasturlari-ga kiritilgan ijtimoiy va ishlab

**INDALLOSINI
AYTGANDA...**

Bahodir KARIM,
filologiya
fanlari doktori,
professor:

- Rasmga tushish va tushirish madaniyati — bugun bu jihat juda ham oqsagan. Kim qayerda, qay yo'sinda, deylik, yana qaysi tarafga moyil yoki kim kimning yonida turishi kerak kabi tartiblar xususida o'zbek milliy matbuoti tarixidan saboq olmoq lozim. Holbuki, umri "qo'lmiya" (qo'l telefon)larga tikilib o'tayotgan hozirgi yosh avlodga ularni o'rgatish kerak.

Xitoy Samarqandni ma'qul ko'ryapti

Xitoylik tadbirkorlar yirik kompaniya va ishbilarmon doira vakillari hamkorlik aloqalarini o'rnatish va mustahkamlash maqsadida Samarqandda bo'lishdi. Forum ishtirokchilari V2V formatida muzokaralar doirasida bo'lajak hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlarini muhokama qildilar.



Forumga Xitoyning 30 ga yaqin yirik kompaniyalari vakillarining viloyatimiz tadbirkorlari bilan bo'lib o'tgan biznes muloqoti ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, turizm sohalaridagi aloqalarni yanada kengaytirish uchun katta imkoniyat bo'ldi.

Tadbirkorlarimiz Samarqandning iqtisodiy salohiyati bilan yaqindan tanishmoqda, — deydi Sichuan provinsiyasi savdo-sanoat palatasi departamenti boshlig'i Yin Jiahui. — Ularga O'zbekistonda tadbirkorlik uchun yaratilgan sharoitlar ma'qul bo'lmoqda. Shuning uchun har bir vakilimiz o'zining maqsadli rejasini taqdim etmoqda. Umuman olganda, ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvlarida mintaqalar va hududlararo muloqotlarni rivojlantirish borasida ilgari surilgan tashabbuslar bugun o'z samarasini bermoqda.

Xitoylik ishbilarmonlar yurtimiz iqtisodiyot sektoriga faol qiziqmoqda. Bunga avvalo, yurtimizda ishbilarmonlik muhitining yaxshilangani va biznes uchun keng imkoniyatlar yaratilgani sabab bo'lmoqda. Buni mazkur forumga Xitoyning yirik kompaniyalaridan 50 dan ortiq ishbilarmon tashrif buyurganida ham ko'rish mumkin.

Samarqandda bugungi kunda Xitoy davlati ishbilarmonlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan 100 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda, — deydi Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i Jasur Shodiyev. — "Urgut" erkin

iqtisodiy zonasi, "Yoshlar" iqtisodiyot zoni va kichik sanoat zonalar mavjud. Ularda ishbilarmonlik uchun barcha infratuzilmalar yaratilgan. Xorijlik ishbilarmonlar ham yaratilgan qulayliklarga guvoh bo'lmoqda.

Biznes forumning asosiy jihatlaridan biri V2V shaklidagi uchrashuvlar bo'ldi. Unda viloyatimizning 30 dan ortiq korxonalar vakillari va Sichuan provinsiyasi tadbirkorlari hamkorlikning kelgusi istiqbolari yuzasidan o'zaro muloqot qilishdi.

Forum doirasida Xitoyning "Xianpust Investment" kompaniyasi viloyatimizning Urgut tumanida yirik shamol energiya-si ishlab chiqaruvchi kompleks qurish istagini bildirdi.

Ushbu biznes forum istiqbolli loyihalarni amalga oshirish uchun katta imkoniyat bo'lmoqda, — deydi xitoylik investor Lyu Vey. — Kelishuvga ko'ra, Urgut tumanida shamol energiya-si ishlab chiqarishni yo'lga qo'yamiz. Forum avvalida mutaxassislarimiz bilan Urgut tumanida bo'ldik. Hududning imkoniyatlarini bilan tanishib, bu yerda muqobil energiya ishlab chiqarish uchun imkoniyatlar katta ekanligini ko'rdik. Shu bois bu sohaga sarmoya kiritishni maqul, deb bildik.

Biznes forum doirasida viloyatning turizm salohiyati ham namoyish etildi. Forum ishtirokchilari viloyatdagi yirik korxonalarda bo'lib, o'zaro tajriba almashishdi.

Viloyat investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi axborot xizmati.

Birlik va hamjihatlik bayrami

E'tirof

Viloyatimizdagi milliy madaniy markazlar rahbarlari hamda jamiyat a'zolari 27-30-iyul kunlari "Do'stlik" festivali doirasida poytaxtimizda o'tkazilgan tadbirlarda ishtirok etdi.

Ushbu sana munosabati bilan Prezidentimiz farmoniga ko'ra, Samarqand shahar "Luys" arman milliy madaniy markazi boshqaruv kengashi a'zosi Garik Markaryan "Do'stlik" ordeni, Samarqand davlat universitetining falsafa va milliy g'oya kafedrasida dotsenti Mahbuba Ergasheva "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi.

Mamlakatimizda millati, tili, dinidan qat'i nazar, har bir inson mehnat qilsa, albatta, rohatini ko'radi, — deydi Mahbuba Ergasheva. — Chin dildan qilingan xizmat davlat miqyo-



sida e'tirof etiladi. Buni o'z hayotim misolida ko'rib turibman. Fors millatiga mansubman. O'zbekistonda tug'ildim, farzandlarim ham shu yurtda kamol topyapti. Hamyurtlarimiz bilan ahil, inoq yashab, bayram, shodiyonalarni birga nishonlaymiz. Quvonchli kunimiz ham, biroq tashvishli onlarimiz ham shu xalq bilan. Kamtarona mehnatim e'tirof etildi, boshqa millat vakillari —



yurtdoshlarimiz qatorida men ham taqdirlandim, "Shuhrat" medali sohibi bo'ldim. Bu mukofot keyingi faoliyatim uchun shijoat bag'ishlaydi. Shuningdek, tadbirida yurtimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari o'rtasida millatlararo totuvlik muhitining mustahkamlanishiga hissa qo'shayotgan, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarini faoliyati samaradorligini

Sulaymon MARDIYEV.

OLG'AGA BORISH ENDI QIYIN EMAS

Nurobod tumanining olis hududlaridan biri bo'lgan Olg'a mahallasida bugungi kunda besh ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. "Yo'l azobi — go'r azobi" deganlaridek, ushbu hududga olib boradigan yo'lining nosozligi tufayli mahalliy aholining tuman markaziga, markazdagilarning mahallaga kelib-ketishi ming bir azob bilan amalga oshgan. Joriy yilning aprel oyida viloyat hokimi E.Turdimovning tumandagi Olg'a, Ittifoq, Chorvador, O'rta'boz mahallalari aholisi bilan uchrashuvdan keyin ta'mirlalab 4N-639 "Nurobod-O'rta'boz-Mehr-Olg'a" va 4N-560 "Toshquduq-Olg'a-Hazarmali" avtomobil yo'llarining 34 kilometr qismini asfaltlash boshlangan edi. Qisqa vaqtda ushbu yo'llarda ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, asfaltlangan ravon yo'lga aylandi. Hudud aholisining og'iri yengil, uzog'i yaqin bo'ldi.



Nurobod tumani hokimligi tomonidan Olg'a mahallasidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga bag'ishlangan press-tur davomida ommaviy axborot vositalari vakillari hududda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, ijtimoiy sohadagi yutuqlar, qishloq xo'jaligi, xususan, chorvachilik borasidagi yangi loyihalar bilan yaqindan tanishildi.

Dastlab press-tur ishtirokchilari tuman hokimligi mas'ullari hamrohligida "Olg'a elining maskani ziyo" fermer xo'jaligi tomonidan o'z mablag'ari hisobidan 50 gektar lalmi yer maydoniga Turkiyada ishlab chiqarilgan yomg'irlatib sug'orish texnologiyasini joriy etish ishlari bilan tanishdi.

Tasarufimizdagi 50 gektar yer maydonga suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish orqali chorva uchun ozuqabop ekin ekishni boshlaymiz, - deydi fermer xo'jalik ish yurituvchisi Faxriddin Qarshiyev. - Hech kimga sir emas, keyingi yillarda yog'in miqdori kamayib, yilning qurg'oqqich kelishi lalmikor yerlarda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarini ancha qiynab qo'ydi. Ikki-uch yildan buyon ekinlarimizdan natija yo'q. Shu bois osmonga qarab o'tirmay, yurtimizda suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish uchun yaratilgan imtiyozlardan foydalanib, samarali faoliyat yuritishga bel bog'ladi. Turkiyada ishlab chiqarilgan zamonaviy suv tejoychi uskunalarining dastlabkisi olib kelinib, ayni paytda ularni maydonga joylashtirish, zarur texnologik jarayonlar olib borilmoqda. Dastlabki bosqichda sinov tariqasida 50 gektar maydonga mo'ljallangan tomchilatib sug'orish texnologiyasi olib kelindi. Bu texnologiya bir kunda 50 gektar yerni sug'orish imkonini beradi va eng muhimi, ushbu hududni sug'orish uchun 5,5 ming kub suv sarflanadi. Joriy yilning oktabr oyidan ushbu texnologiyadan foydalangan holda yerga urug' qadaymiz. Natijaga qarab, qolgan 550 gektar maydonga

ham shunday tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilib, yerdan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish orqali chorvachilikni rivojlantirishga o'z hissamizni qo'shamiz. Buning uchun tegishli tartibda xorijlik hamkorlar bilan o'zaro kelishuvlar tuzilgan. Qiymati 1,5 million AQSH dollari bo'lgan ushbu loyiha asosida jami qirq nafar mahalliy aholi ish bilan band bo'ldi.

Fermer xo'jalik mas'ul xodimi F. Qarshiyevning ta'kidlashicha, xo'jalik ko'p tarmoqli bo'lib, ayni paytda nasli mollarini ko'paytirish borasida ham doimiy izlanishda. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgacha xo'jalikka Fransiya taraqqiyot agentligining "O'zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish loyihasi" doirasida xalqaro kredit liniyalari orqali 4 milliard 980 million so'mlik 1840 bosh nasli mayda shoxli chorva mollari qo'shni Qirg'iz



Respublikasidan olib kelinib, boqilmoqda. Olg'a mahallasida yashovchi aholining asosiy daromad manbai chor-

Inson qadri uchun

vachilik hisoblanadi. Hududda azaldan chorvachilik rivojlangan bo'lib, ayni paytda ham aholi ota-bobolari boshlagan ishni davom ettirib, salmoqli natijalarga erishmoqda.

Otam chorvador o'tgan, shu bois ota kasbini davom ettirib kelmoqdaman, - deydi "Hamfikir" fermer xo'jaligi rahbari Bahodir Berdiyev. - 2007-yilda fermer xo'jaligi tashkil qilib, 350 bosh mayda shoxli mol bilan faoliyat boshlagan edik. Bugun mayda shoxli chorvamiz soni 1200 boshdan oshdi. Shuningdek, 100 bosh yilq, o'n boshdan ortiq tuya boqyapmiz. Faoliyatimiz go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan. Yiliga 2 tonnagacha go'sht yetishtiramiz. Har qanday ishda har doim muammo bo'lgan. Faqatgina oqilona yondashuv orqali muammolar tizimli hal etiladi. Bugungi kunda ham chorvachilikda muammolar bor. Ularni hal etish uchun hukumatimiz tomonidan samarali tizim yaratilganligi yaxshi faoliyat yuritishimizga zamin yaratmoqda. Ayni paytdagi eng katta muammo ozuqabop ekin yetishtirish bilan bog'liq. Ko'rib, guvohi bo'lganinigizdek, tomchilatib sug'orish tizimi orqali muammoga yechim topilmoqda. Buning uchun imtiyoz ham, imkoniyatlar ham yetarli. Faqatgina hafsala bilan ishga kirishilsa, natija kutilganidek bo'ladi.

Press-tur davomida ishtirokchilari Olg'adagi obodonlashtirish ishlari hamda 10-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan tanishdi.

Bizning eng katta muammomiz tuman markazi bilan bog'laydigan ko'chaning nosozligi edi, - deydi olg'alik mehnat faxriysi To'ra Pomi-shov. - Mana, viloyat va tuman hokimlarining boshchiligidagi tekis va ravon yo'l qurilib, uzog'imiz yaqin, og'irimiz yengil bo'ldi. Mahallamizdagi obodonchilik, bunyodkorlik ishlari ham kishi ko'zini quvnatadi. Mahallamizda maktabgacha ta'lim muassasasi umuman yo'q edi. 2019-yilda 160 o'rinni 10-davlat maktabgacha ta'lim muassasasi ishga tushirilib, nabiralari-miz zamon talablariga mos sharoitlarda ta'lim-tarbiya olyapti. Shuningdek, zamonaviy qishloq vrachlik punkti tashkil qilindi. Maktab binosi ham ta'mirlanib, zamonaviy ko'rinishga ega



bo'ldi. Qishloq'imizdagi masjid qayta bunyod etilmoqda. Umuman olganda Olg'a nomiga mos tarzda zamon bilan hamnafas holda olg'a intilmoqda.



NAVBAHOR — NAMUNALI MAHALLA

Bulung'ur tumani Navbahor mahallasida 3 ming 600 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Azaldan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan ro'zg'or tebratib kelgan navbahorliklar tumanning boshqa hududlari aholisiga doimo o'rnak bo'lgan. Bugungi kunda ular orasida tadbirkorlik bilan ham shug'ullanayotganlar kundan-kunga ko'paymoqda.

"BIR MAHALLA - BIR MAHSULOT" TAMOIYI ASOSIDA QURUT TAYYORLANYAPTI

Mahallada 605 xonadon bo'lib, ularning 120 tasida qurut tayyorlanadi. Bu ish bilan shug'ullanayotgan har bir tadbirkor 10-15 nafardan ishsizning bandligini ta'minlagan.

Tadbirkorlar safi va faoliyati kengayishi sababli ijtimoiy "daftar"-larda ro'yxatda turuvchi xotin-qizlar ishli bo'lyapti, - deydi mahalla faoli Risolat Sulaymonova. - "Ayollar daftri"da ro'yxatda turgan xotin-qizlardan 23 nafari qurut tayyorlovchi tadbirkorlarga birtakirlangan bo'lib, ular ham ish o'rganyapti, ham ro'zg'ori uchun oyiga 3 million so'mgacha daromad keltiryapti.

Ahamiyatli, bu ayollardan biri mustaqil tadbirkorlik bilan shug'ullanishni boshladi. Bu yanada foydali. Masalan, 1 kilogramm suzmani 16 ming so'mdan sotib oladi. Uning 3 kilogrammidan 1 kilogramm qurut tayyorlanadi. Agar oyiga kamida 6 tonna suzmadan 2 tonna qurut tayyorlab, uning kilogrammini 55 ming so'mdan sotadigan bo'lsa, 14 million so'm daromad qilishi mumkin.

TADBIRKORLARDAN BIRI QURUT TAYYORLASH USKUNASINI IXTIRO QILDI

Avvallari tadbirkor Bekzod Ma'mirov xonadonida kuniga 400-500 kilogramm qurut tayyorlash uchun 8 kishi jalb qilingan bo'lsa, maxsus sex tashkil qilingach, bu ishni ikki nafar ayol eplayapti. Ahamiyatli, bu yerda bir kunda o'rtaicha ikki tonnagacha mahsulot tayyorlanadi.

15 yildan beri qurutchilik bilan shug'ullanib kelaman, - deydi tadbirkor. - Bolaligimda bobom va momom qurutni kaftlari bilan yumaloqlardi va oftobda quritib, bozorga olib chiqardi. Keyingi yillarda oyna yordamida qurut tayyorlash yo'lga qo'yildi. Ammo buning uchun ham ko'p mehnat talab qilinardi. Shu ishni texnika yordamida qilish mumkinligini o'yladim, uskuna yaratish ustida bosh qotirdim. 10 yillik izlanishlarim va harakatim natijasida maqsadimga erishdim. Bugungi kunda men ixtiro qilgan uskuna yordamida bir



kunda 3 tonna qurut tayyorlash mumkin. Ayni paytda tadbirkor ixtiro qilingan uskuna uchun patent olish harakatida. Buning uchun unga viloyat hokimligi mas'ullari yaqindan ko'mak berishni va da qilishgan.

GULSARA AYANING SARA GULLARI YILIGA 100 MILLION SO'M DAROMAD KELTIRYAPTI

65 yoshli Gulsara Quدراتova mahalladagi qo'li gul hunarmandlardan biri. U sovun, tasma, turli mato va qog'ozlardan bir-biridan nafis gullar yasaydi. Gulsara aya o'z hunarini farzandlari va nabiralari, mahalladagi ishsiz xotin-qizlarga o'rgatib kelmoqda.

Pensiya yoshida bo'lsam ham bekor o'tirishni istamayman, - deydi hunarmand. - Bu ham sog'lig'imga foyda, ham ro'zg'or uchun qo'shimcha daromad keltiryapti. Gul yasab sotib, oyiga kamida 5-6 million so'm topyapman. Bayramlar arafasida daromadim ikki hissa ortadi. Gulchilik bilan shug'ullanib, yiliga kamida 100 million so'm topsa bo'larkan. Bugunga qadar 200 dan ziyod shogird tayyorladim. Ularning 20 nafari "Ayollar daftri"ga kiritilgan xotin-qizlardir. Ahamiyatli, bugungi kunda shogirdlarim orasida o'zi mustaqil gul yasab, sotayotganlari ham bor. Shuningdek, ular ustoz-shogird an'anasini davom ettirgan holda qo'ni-qo'shnilariga gul yasash sirlarini o'rgatyapti.

To'lqin SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).



Oqdaryo tumanidagi "Evro tbm" mas'uliyati cheklangan jamiyati qurilish mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. 2022-yilda tashkil etilgan korxonada 50 nafar ishchi mehnat qiladi. - Ayni paytda korxonamizda beton plita, poydevor bloklari, lotoklar va tayyor beton ishlab chiqarilmoqda, - deydi sex boshlig'i Farrux Hotamov. - Germaniya, Italiya va Turkiya davlatlaridan keltirilgan texnologiya asosida kuniga 720 metr, yiliga 144 ming metr beton plita ishlab chiqaramiz.

Baxtiyor MUSTANOV olgan suratlar.

Navbatga onlayn yozilish mumkin

Fuqarolar notarius bormasdan ham, masofadan "e-notarius.uz" portali orqali zarur hujjatlarni onlayn yuborish, notarius qabuliga o'zlari uchun qulay bo'lgan paytda yozilish imkoniga ega. Shuningdek, eng yaqin hududdagi notariusni topish, notarial sohada qiziqtirgan xizmatlar bo'yicha ma'lumot olish, oldi-sotdi, ayirboshlash yoki hadya etish uchun elektron arizalar topshirish, xizmat ko'rsatgan notarius haqida o'z fikrlarini qoldirishlari mumkin.

AYRIM HUJJATLARNI O'ZLARI YIG'ADI

Notarial idorada elektron hujjat almashinish tizimi yaratilgan bo'lib, bu fuqarolarni ko'plab hujjatlar yig'ishdan ozod etadi, bu ishlarni notariuslar sanoqli daqiqalarda onlayn tarzda amalga oshiradi. Masalan, kommunal to'lovlar haqidagi ma'lumotlar, taqiy bor-yo'qligi, FHDY bazasidan nikohi bor-yo'qligi tekshirilishi mumkin.

TO'LOVDAN KEYIN SMS KELISHI SHART

Bugungi kunda notarius xizmatlari uchun davlat boji, pullik xizmat va boshqa to'lovlar elektron tizim orqali amalga oshirilmoqda. Mijozga mobil aloqa orqali SMS-xabar yuboriladi. Xabarda no-

tarial harakatlar uchun mijoz tomonidan amalga oshirilgan to'lovning aniq miqdori ko'rsatilgan bo'ladi. Bu esa to'lovlarning 100 foiz davlat hisob raqamiga o'tkazilishini kafolatlaydi. SMS-xabar mijoz to'lagan pulning qonuniy miqdorini yana bir marta tekshirish va xotirjam bo'lish imkonini beradi.

AYRIM XIZMATLARNI ISTALGAN IDORADAN OLISH MUMKIN

Jismoniy yoki yuridik shaxs notarial harakatni amalga oshirish uchun xohlagan notariusga murojaat qilishga haqli. Ammo meros bilan bog'liq notarial harakatlar, pul summalari va qim-

matli qog'ozlarni depozitga qabul qilish, chekni to'lovga taqdim etish va chekning to'lanmaganligini tasdiqlash kabi notarial harakatlar bundan mustasno.

Shuningdek, O'zbekiston xalqaro shartnomasida notarial harakatlar to'g'risida qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, notarial harakatlarni amalga oshirish chog'ida xalqaro shartnomaga qoidalar qo'llanadi. Boshqa barcha hollarda eksterritoriallik tamoyiliga asosan, notarial harakatlar amalga oshiriladi.

ONLAYN SAVOL YO'LLASA BO'LADI

Hatto shanba-yakshanba kunlari ham notariuslar ishlaydi. Bu haqdagi ma'lumot @notariusmaslahati telegram kanalida e'lon qilinadi. Shuningdek, notarial sohaga taalluqli barcha savollarga ham yuqoridagi kanal orqali javob berib boriladi. Xizmatlar bepul.

Alisher PRIMOV, viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi.

Osiyo chempionatida 1 ta oltin, 5 ta kumush medali qo'lga kiritildi

Toshkent shahrida maktab o'quvchilari o'rtasida shaxmat bo'yicha XVII Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. Musobaqada qit'amizning 16 davlatidan kelgan 400 nafar shaxmatchi rapid, standart va blits yo'nalishlarida g'oliblik uchun dona surdi.

Chempionatda samarqandlik o'quvchilar ham munosib ishtirok etib, yosh toifalarida g'olib va sovrindorlar qatoridan joy egalladi. Jumladan, Past Darg'om tumanidagi 19-maktab o'quvchisi Guldon Karimova 17 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida standart yo'nalishida oltin va blits yo'nalishida bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Samarqand shahridagi 12-maktab o'quvchisi Akobirxon Saydaliyev 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida standart va rapid yo'nalishlarida 2 ta, Urgut tumani 136-maktab o'quvchisi Ruqiya Olimova 13 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida rapid yo'nalishida, Samarqand shahar 13-maktab o'quvchisi Ikromjon Xalilov 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida blits yo'nalishida bittadan kumush medallariga sazovor bo'ldi.

Bekzod AHMEDOV.



Ustozga ehtirom



Bu insonning g'ayrat-shijoatiga, tashabbuskorligiga qarab, hech ham 70 yoshga kirgan demaydi. Hatto dam olish kunlari ham uyida, oila davrasida birorta ma'naviy tadbir xususida bosh qotiradi, atrofidagilarning fikrini so'raydi. Biror joyga borib qolgudek bo'lsa, ibratli holatlarni darhol o'ziga qabul qiladi. Ehtimol shuning uchun bo'lsa kerak, samarqandlik ziyolilar ustozimni ma'rifatdan halovat izlagan odam sifatida hurmat qilishadi. Albatta, bu xislatlarning ildizi yo'q emas.

MA'RIFATDAN IZLAB HALOVAT

Fidoiy ziyoli Shavkat Rahimov siyratiga chizgilar

Shavkat aka Samarqand davlat universitetining obro'li faylasuf olimi Bag'riddin Rahimov hamda Umaro muallima tarbiyasida kamol topdi. SamDU tarix va jamiyatshunoslik fakultetini bitirganda ota-ona kasbini egallagan Shavkat qanchalik g'ururga to'lgan bo'lsa, o'z farzandining jamiyatga kerakli sohaga kirayotgani uchun ota-ona undanda ko'proq zavqlandilar. Mana, qarang, o'sha voqeaga ham qariyb 50 yil bo'libdi. Ammo ustozim hozirda ham o'sha g'ururi, o'sha shijoat bilan mehnat qilmoqda.

Sh.Rahimov Samarqanddagi hunar-texnika bilim yurtida o'qituvchi, o'sha davrdagi siyosiy maorif uyida ilmiy maslahatchi, bilim jamiyatida mas'ul kotib, viloyat kasaba uyushmalari tashkilotida o'quv ishlari bo'yicha mas'ul sifatida hayotiy tajribaga ega bo'ldi. Undagi tashkilotchilik, odamlarga yaxshilik qilish ishtiyogi "Mehr-shafqat va salomatlik" viloyat jamg'ar-masi hamda nogironlar jamiyati boshqaruvi raisligida juda asqotdi. U qalbgga shifo berish ezgu ishlarning ezgusidir, degan shiorga amal qildi. Ustozning nogiron bolalarni davolash, xorijdagi sanatoriylarga yuborish uchun davlat tashkilotlari, homiylar, hamkor tashkilotlar hamda chet davlatlar elchixonalarini bilan muzo-

kara olib borganlarini ko'p bor ko'rganman. Bir ishni boshladimi, qiyinchiliklardan qo'rqmaydi, to maqsadiga erishmaguncha tinib-tinchi olmaydi. Shu tufayli ko'plab ota-onalar va nogiron bolalarning duosini oldi. 20 dan ziyod muhtojlarga zamonaviy aravachalar topshirdi. Bundan tashqari, imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida bizga o'xshagan shogirdlarini jalb etib, juda ko'p ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, mahorat darslari uyushtirdi. Ayniqsa, u kishining tashabbusi bilan "Maftunkor ranglar dunyosi" xalqaro tasviriy san'at ko'rik-tanlovi o'tkazilishi imkoniyati cheklangan bolalar uchun chinakam bayram bo'ldi.

Ustozning tashabbusi bilan 23-yil avval nogironlar jamiyati qoshida "Zarafshon taronalari" ansambli tashkil etildi. Va tezda "Ona diyorim" ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Shavkat Rahimov 2002-yilda "Yalyans Franses" jamiyatida nogiron ayollar uyushmasining taqdimotini o'tkazdi hamda bu tashkilot samarqandlik faollari uchun o'quv-seminar uyushtirdi.

Ustozning tinib-tinchi masligiga havas qilaman. 2007-yilda "Sharq durdonasi" tarixiy, madaniy, madaniy-ma'rifiy va huquqiy markaz tuzdi, markaz faollari bilan rassomchilik, hunar-

mandchilik, tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar hamda Samarqand allomalari haqida bukletlar, kataloglar tayyorlashga erishdi. Oliy Majlis jamoat fondining granti asosida esa o'zbek, rus va ingliz tillarida "Sharq navolari" nomli risolani chop etdi.

Sh.Rahimov tashabbusi bilan bo'layotgan "Shashmaqom" musiqa kechalari bu ko'hna san'atni avlodlarga yetkazish barobarida, undan xorijdan kelayotgan sayyohlarni ham xabardor etishda muhim rol o'ynayapti. Masalan, 2016-yilda bo'lgan shunday kechada 200 nafar xorijlik sayyohlar tashrif buyurishdi. Shuni hisobga olib, ustoz o'z hovlisida shaxsiy muzey tashkil etdi. Unda 28 mamlakatdan keltirilgan 4200 dan ziyod eksponatlar mavjud. Nasib etsa, yaqin kunlarda ikkinchi "Shashmaqom" musiqa festivali o'tkaziladi.

Xullas, ustoz 70 yoshida ham mamlakatdagi ulug'vor ishlarga hissa qo'shish uchun tinib-tinchimasdan mehnat qilmoqda. Bu borada unga ikki o'g'il va ikki qizni birgalikda zamonaga munosib qilib tarbiyalagan umr yo'ldoshi Mavsuma Donyorova va shogirdlari qanot bo'lmoqdalar. Demak, ustoz hali ko'p ezgu ishlari-mizga bosh bo'ladi.

Sitora SOBIROVA.

OIV INFEKSIYASI TO'G'RISIDA TIBBIY MADANIYATNI OSHIRISH ZARUR

Dunyoda insonning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli xil kasalliklar bor. Ammo shunday dardlar borki, uning nomi kasallik keltiradigan zarardan og'irroq, azobliroq. Bu dardga chalingan insonlar qaysidir ma'noda jamiyatdan uzilib qolganday, o'zlarini yolg'izday his qiladi.

OIV infeksiyasini aniqlash uchun eng avvalo, o'ziga yaqin ambulator profilaktika muassasasiga qon tahlili namunasini topshirish lozim bo'ladi. Bunda birinchi marta immunoferment analiz (IFA) usuli orqali tekshiriladi. Qon zardobi yoki qon plazmasida OIV antitelalarini aniqlashga asoslangan immunoferment analiz usuli OIV infeksiyasini aniqlashda taxminiy usul bo'lib, bunda ko'p miqdorda antitela aniqlanadi. Boshqa immunitetning og'ir shikastlanishi bilan kechadigan kasalliklarda ham IFA tahlili usuli musbat natija berishi mumkin. OIV infeksiyasi yuqqanligini aniqlashda xulosa qilish uchun qayta qon tahlili olinib, immunoblot usulida tekshiriladi. Bu usul OIV infeksiyasini aniqlashda tasdiqlovchi usul hisoblanib, bunda aynan OIV infeksiyasiga xos tanacha aniqlanadi.

Tahlil natijasidan so'ng OIV infeksiyasi aniqlangan shaxslar bilan OITS markazining mutaxassislari profilaktik va davolash tadbirlarini olib boradi. Har bir OIV infeksiyalii shaxslar antiretrovirusga qarshi dori vositalari bilan dovolash kursini boshlaydi. Virusga qarshi deyilgan bilan bu preparat virusni o'ldirmaydi, balki organizmda virus ko'payishini to'xtatib turadi. Natijada OIV infeksiyalii shaxslar virusga qarshi dori vositalarini qabul qilib, sog'lom odamlardek bemalol hayotini davom ettiradi.

Ammo jamiyatda bu kasallikka nisbatan noto'g'ri tushunchaga ega shaxslar ham juda ko'p uchraydi. Ba'zan OIV infeksiyasi qo'l berib ko'rishganda, idishidan foydalan-ganda, muloqotda bo'lganda, havo tomchisi orqali yuqadi, degan noto'g'ri fikr bo'ladi. Ammo OIV infek-

siyasi jinsiy, parenteral, ya'ni qon va vertikal yo'llar orqali yuqishini hamma insonlar ham bilmaydi. Buning oqibatida OIV infeksiyalii shaxslarda alamzadaliq holati kuchayishi va o'zining statusini sir saqlab, boshqalarga yuqtirish ehtimolini yuzaga keltirishi mumkin.

Bunday salbiy holatlarning oldini olishda aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida OIV infeksiyasi to'g'risida tibbiy madaniyatni oshirish juda muhim. Tibbiy xodimlar OIV infeksiyalii shaxslarda kasalni yengish uchun o'ziga bo'lgan ishonch oshishiga, antiretrovirus dorilarini bir umr qabul qilishda sodiqlikni ta'minlashda ruhiy-psixologik ko'maklashishlari lozim. OIV infeksiyalii shaxslar dori vositalarini o'z vaqtida tartib bilan ichib yurishi lozim. Bu ularning hayot sifatini yaxshilashga va umrini uzaytirishga yordam beradi.

Zulayho QURBANOVA,
Noila MUZROBOVA,
viloyat OITSga qarshi kurash
markazi laboratoriya majmuasi
vrach-laborantlari.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

TANLOVDA QATNASHING!

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali 2023-2024-o'quv yili uchun quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali va ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarni tanlov asosida ishga taklif etadi:

1. Axborot tizimlari va texnologiyalari.
2. Maktabgacha ta'lim.
3. Boshlang'ich ta'lim.
4. Matematika va informatika.
5. Kimyo.
6. Biologiya .
7. O'zga tilli guruhlarda rus tili.
8. Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili).
9. O'zbek tili va adabiyoti.
10. Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari.
11. Buxgalteriya hisobi va audit.

Tanlovda qatnashuush uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- filial direktori nomiga ariza;
- xodimlar hisobi bo'yicha shaxsiy varaqa;
- oliy ma'lumoti, ilmiy daraja haqidagi diplomlar nusxalari;
- ilmiy unvon haqidagi attestatning nusxasi;
- ilmiy va uslubiy ishlar nusxasi;
- malaka oshirganlik to'g'risida guvohnoma;
- xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nusxasi (mavjud bo'lsa)

Hujjatlar 2023-yil 25-avgustga qadar quyidagi manzilda qabul qilinadi: Samarqand viloyati Urgut tumani, Vag'ashti mahallasi, 13-uy.

TANLOVDA QATNASHING!

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali quyidagi kafedralar bo'yicha yuqori malakali va ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarni tanlov asosida ishga taklif etadi:

1. Maktabgacha ta'lim va pedagogika kafedrasini.
- Kafedra mudiri 1ta.
- Gumanitar fanlar kafedrasini.
- Kafedra mudiri 1ta.
- Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar kafedrasini.
- Kafedra mudiri 1ta.

Tanlovda qatnashuush uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- filial direktori nomiga ariza;
- xodimlar hisobi bo'yicha shaxsiy varaqa;
- oliy ma'lumoti, ilmiy daraja haqidagi diplomlar nusxalari;
- ilmiy unvon haqidagi attestatning nusxasi;
- ilmiy va uslubiy ishlar nusxasi;
- malaka oshirganlik to'g'risida guvohnoma;
- xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nusxasi (mavjud bo'lsa)

Hujjatlar 2023-yil 25-avgustga qadar quyidagi manzilda qabul qilinadi: Samarqand viloyati Urgut tumani, Vag'ashti mahallasi, 13-uy.

QUTLAYMIZ!

Aziz otajonimiz ISLOM KOBILOV!

Sizni 65 yoshingiz bilan chin dildan muborakbod etamiz. Siz bosib o'tgan hayot yo'lingiz biz uchun haqiqiy ibrat maktabidir. Samarqand shahar ichki ishlar boshqarmasida uzoq yillar mas'ul vazifada xizmat qilgan kezlaringizni yaxshi bilamiz. Siz hamma joyda fidoyilik ko'rsatgansiz, jamoada hurmat-izzatga sazovor bo'lgansiz. Onajonimiz Nigora Sultonova bilan 39 yil ahil-inoq yashab kelayotganingizning o'zi biz uchun katta baxtdir. Sizga mustahkam sog'lik tilaymiz. Yaqinlaringiz davrasida doimo shod-xurram yurish nasib etsin. Qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin, aziz otajon!

Ma'mur, Ramiz va Farrux.



DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayeva notarial idorasida marhum Djurakulova Dilbar Axtamovnaga (2022-yil 25-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayeva notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayeva notarial idorasida marhum Salimov Ulmasga (2020-yil 3-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayeva notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Safarova Buvraziyaga (2022-yil 8-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Toliboyev Shoxrux Nurbek o'g'liga (2023-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Kengashyeva Oyzodaga (1999-yil 22-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli Biologiya va genetika instituti jamoasi institut faxriysi, ilmiy xodim
Muhtaram HAMRAYEVning vafoti munosabati bilan marhumaning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

Yurgan - daryo

Okean orti davlatidan ilk taassurotlar

Ayni kunda Malayziyadagi Terengganu universiteti(UMT)da ilmiy-amaliy malakamni oshirayapman. Malayziya Terengganu universitetining okean muhandislik texnologiyalari va informatika fakulteti rahbariyati menga barcha sharoitlari mavjud xona ajratdi. Shuningdek, universitet professori Ahmat Nazri ilmiy rahbar etib tayinlandi.



Ilmiy-amaliy malakamni oshirishdan maqsad, telekommunikatsiya tarmoqlari, optik aloqa hamda mobil aloqa tizimini Malayziya sharoitida o'rganishdir.

Birinchi ish boshlagan kundanoq samarqandlik, shu universitet professori, fizika-matematika fanlari doktori Zayniddin Eshquvratov bilan uchrashdim. U sal kam yigirma yildan buyon Malayziyada talabalarga matematikadan saboq berarkan.

Darhaqiqat, bu o'quv dargohida o'zbekistonlik talaba, magistr, doktorant va professor-o'qituvchilarni uchratish mumkin.

Men hisoblash matematikasi, raqamli tahlil yo'nalishida doktoranturada o'qiyman, - deydi Husnida Mamatova. - Bu yerdagi o'qish tizimi O'zbekistonnikidan biroz farq qiladi. Universitetda PhD talabalari uchun alohida o'qish xonasi ajratilib, kompyuterlar bilan ta'minlangan. Bundan tashqari, kutubxonada talabalar kechki soat 10:00 gacha bemalol alohida xona olib ishlash imkoniga ega. Universitetimiz kutubxonasida butun jahon bo'ylab ko'plab elektron jurnallar va kitoblar mavjud. Sohamizga taalluqli maqolalarni kutubxonaga saytiga kirib, osongina bepul yuklab olib, o'rganish imkoniga egamiz. Yaqinda ustozim Zaynidin Eshquvratov yordamida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, yurtimga qaytmoqchiman.

Malayziya Terengganu universitetining kutubxonasi juda katta hududni egallagan bo'lib, unda 130 mingdan ortiq kitob va jurnallar mavjud. Ular malay, ingliz, arab, turk, rus, xitoy, hind va boshqa tillarda nashr qilingan.

Kutubxonada 18 nafar bakalavr hamda magistr ma'lumotiga ega xodimlar va 31 nafar yordamchi xodimlar faoliyat ko'rsatadi. Ma'lumotlar bazasidan 22 ta platforma orqali veb-saytlarga kirib, 2 milliondan ortiq jurnal, maqolalar va 65 ming 907 ta elektron kitobdan foydalanish mumkin.

Kutubxonadan bir vaqtning o'zida zal va xonalarida 1200 nafar va tashqari hovlisida 220 nafar, jami 1420 nafar professor-o'qituvchi va talaba foydalanish imkoniyatiga ega.

Kutubxonada ertalab soat 8:00 dan kechki 12:00 qadar, dam olish kunlari ertalab soat 9:00 dan kechki 27:00 ga qadar faoliyat ko'rsatadi. Mamlakatning boshqa universitetlari professor-o'qituvchilari hamda talabalari ham ushbu kutubxonadan foydalanishlari mumkin.

Kutubxonadagi jurnal va kitoblarni talabalarga o'zlari bilan ikki haftagacha va professor-o'qituvchilarga 3 oygacha muddatda olib ketishga ruxsat beriladi.

Kutubxonadagi qimmatbaho, noyob kitoblarni olib chiqish taqiqlangan. Agarda olib chiqadigan bo'lsangiz, bo'lim eshigida o'rnatilgan uskuna kutubxonaga xodimlarini ogohlantiradi.

Kutubxonaga maxsus chip bilan kiritiladi va nazoratchi ko'rigida chiqariladi.

Bu yerda talabalar va professor-o'qituvchilar foydalanishlari uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan video va audio, ovozi yozuvlarni amalga oshirishlari uchun kichik studiya mavjud.

Universitet professor-o'qituvchilari va magistr tomonidan yozib tayyorlangan va himoya qilingan dissertatsiyalarning asl nusxalari, shuningdek, bakalavrlar tomonidan himoya qilingan, saralangan diplom asl nusxalari saqlanadigan xona mavjud bo'lib, bunday dissertatsiya va diplomlardan keyingi avlod vakillari ham foydalanish imkoniga ega.

Aqli o'rganish xonasi (Smart room)da har xil turdagi bir qancha o'yinlar jihozlari mavjud bo'lib, yakka tartibda va jamoa bo'lib o'yinlar, musobaqalar o'tkazish mumkin. Umuman olganda, universitet kutubxonasidan juda ko'p ma'lumotlarni o'rganish va o'zimizdagi OTMLarda tatbiq qilish mumkin.

Malayziya Terengganu universitetining okean muhandislik texnologiyalari va informatika fakulteti mamlakat uchun zarur bo'lgan dengizchilik va atrof-muhit muhofazasi texnologiyalari, elektronika, kompyuter, matematika va informatika bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlaydi.

Men rahbarlik qilayotgan okean muhandislik texnologiyalari va informatika fakultetida 118 nafar professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatadi, - deydi fakultet dekani, professor Muhammad Fazi Bin Ahmad. - Jumladan, 10 nafar professor, 34 nafar dotsent, 68 nafar PhD maqomiga ega bo'lgan katta o'qituvchilar, 6 nafar o'qituvchi, umumiy hisobda fakultetimizning ilmiy salohiyati 96 foizdan iborat. Fakultetda 157 nafar magistrant va 2065 nafar bakalavr talabalari, umumiy hisobda 2333 talaba ta'lim oladi.

Fakultetda bugungi kunga kelib, 5 ta kafedrada 50 ga yaqin yo'nalishda mutaxassislar tayyorlanadi. Bular: amaliy fanlar, muhandislik va dengizchilik texnologiyasi, elektronika va asbobsozlik, atrof-muhit muhofazasi, mashinasozlik texnologiyasi, dengiz arxitekturasini, kompyuter fanlari, dasturiy ta'minot muhandisligi, mobil hisoblash, moliyaviy matematika, amaliy matematika, statistika, ma'lumotlar bazasi.

Abdug'afur HOTAMOV,
TATU Samarqand filiali telekommunikatsiya injiniringi kafedrasi dotsenti.

Abdumalik ishdan kechroq qaytdi. Hisobotlarini yana bir bor ko'zdan kechirib, kelasi chorak rejalariga tuzatish kiritish zarur bo'lib qoldi. Kechki payt bo'lgani uchun bekatda yo'lovchilar ko'p. Avtobus kelib to'xtashi bilan hamma o'zini ichkariga urdi. Bir amallab avtobusga chiqib olgan Abdumalik tiqilinchda zo'rg'a tutqichga osilib oldi. Avtobus ichida havo dim, odamning nafasi bo'g'iladi. Orqadan kimdir Abdumalikning yelkasiga qo'l tashladi, u zo'rg'a o'girilib, ortiga qaradi.

- G'anisher! Tushimmi o'ngimmi, o'zingmisan, do'stim?

- Ha, menman, Abdumalik, uchrashgan joyimizni qara-ya! Ancha o'zgarib ketibsan, sochlaring oqaribdi, sog'-salomatmisan, jo'ra!

- Xudoga shukur, yuribman turmushning mushklarini yeb. Xo'sh, o'zing qalaysan, qanday shamollar uchirdi biz tomonga? Sen sirayam o'zgaribsan, o'sha-o'sha navqiron.

Abdumalik G'anisher bilan armiyada uch yil birga xizmat qilgan, bir mayizni bo'lib yeb, askarlik mashaqqatlarini birga yengib o'tishgan. Xizmatdan so'ng ikkisi ham o'z yurtiga - Abdumalik Samarqandga, G'anisher Chimkentga qaytdi. Ko'rishmaganlariga ham o'n yildan oshibdi.

- Do'stim, hozir biznikiga boramiz, askar paytlarimizni eslaymiz, suhbatlashamiz. Ikki-uch kun mehmon bo'lib ketasan, kim biladi, taqdir bizni yana uchrashtiradimi, yo'qmi! Shaharni tomosha qilasan.

- Uzr, do'stim, - dedi G'anisher, - nasib bo'lsa, hali ko'p uchrashamiz. Tong sahar jo'nab ketishim kerak. Otam xashta, Samarqandda zo'r do'xtirlar bor deb eshitgandim, uchrashdim, endi otamni olib kelaman.

- Hechqisi yo'q, - dedi Abdumalik, - ertalab mening mashinamda borib olib kelamiz boboyni. U qo'yarda-qo'yimay G'anisherni uyga boshlab keldi. Musofir yurtlardagi askarlik kishini bir-biri bilan tug'ishgan aka-ukadek qardond qilib qo'yar ekan. Xizmatdosh do'stini uchratib qolgan Abdumalik quvonchdan o'zini qo'ygani joy topmasdi.

Hali barvaqtroq bo'lsa-da, Tamanno erining kelishini kutib o'tirmay, uyquga yotgandi. Abdumalik do'stini mehmonxonaga o'tqazib, xotinini turg'izish uchun o'shni xonaga o'tdi.

- Ha, keldingizmi, nima deysiz? Uxlagani qo'ya-sizmi, yo'qmi, charchaganman, - erining turtkisidan ko'zini ochgan Tamanno boshqa yoniga o'girilib, choyshabga o'ranib oldi.

- O'vozingni o'chir, - dedi Ab-

Turmush chorahalarida

dumalik shivirlab xotinini turg'izar ekan.

- Mehmon bor, eshitib qolmasin, tur, ovqatga unna.

- Nima? Qanaqa mehmon, qanaqa ovqat? Siz ergashtirib kelgan bo'lsangiz, o'zingiz ziyofat qilavering. Bu yer restoran emas.

- Jim, og'zingni yum! - Abdumalik kafti bilan Tamannoning og'zini bekittidi.

- Jim bo'lmayman, - Tamanno erining qo'lini siltab, battar jazavaga tushdi.

Jahli chiqib ketgan Abdumalik uning yuziga qanday qilib shapaloq tortib yuborganini bilmay qoldi.

- O'chir!

- Voy dod, kim bor, meni o'ldiryapti! Shovqindan uyg'onib ketgan Asolat aya shoshib kirib keldi.

- Hoy, hoy. O'zingni bos, o'g'lim, o'zi nima gap?

Eshikda yelkasiga to'n tashlagan Usmon ota ko'rindi.

- Nima gap, kelin? - Buni o'g'lingizdan so'rang, bo'ldi ketaman, o'lar bo'lsam, o'lib bo'ldim. Bu uyni endi yelkamning chuquri ko'rsin...

G'azabdan o'zini yo'qotib qo'yan Abdumalik kutilmagan holdan toshdek qotib qolgandi.

Hech qachon bunchalik yigitlik g'ururi toptalmagandi. Do'sti oldida nima degan odam bo'ldi.

Ota-onasining qistovi bilan Tamannoga uylangan Abdumalikni oiladan omadi kelmadi. Otasi katta savdo firmasi direktori bo'lgan Tamanno erka, "allada aziz, to'rvada mayiz", haddan tashqari o'ziga bino qo'yib o'sgandi. Qirq yil mahalla ahli farzandlariga ta'lim bergan, katta hurmatga sazovor Usmon ota, xokisor onaizor Asolat aya buni qayerdan bilishsin? Ular yolg'iz o'g'illari Abdumalikni baxtli qilamiz deb xato qilib qo'ygani to'yan keyin anglashdi. Biroq o'isht qolipdan ko'chgandi. Kelin toshoyna qarshisida pardoz-andozdan bo'shamas, ertalab yasanib-tusanib chiqib ketgani-cha kech qaytib kelar, qo'lini sovuq suvga urmasdi. Kelin olsam, jonimga aro kiradi, deb o'ylagan Asolat ayaning xayollari puch bo'lib chiqdi.

Ustiga-ustak Tamanno "figuram" buziladi deb farzand ko'rishni orqaga surib kelardi. Mahalla-ko'y, do'st-birodarlari oldida boshi kam Abdumalik bir umr bunday yashash mumkin emasligini, Tamannoni endi tarbiyalab bo'lmagligini tushundi. Biroq ajrashishiga ota-onasi rozi bo'lishmadi. Usmon ota va Asolat aya mahalla kayvonilari sifatida barcha tadbirlarda bosh-qosh edi. Ular o'g'li xotini bilan ajralib, el oldida boshlari egilishini istashmasdi.

- Sabr qil, bolam, xotining badavlat oilada aytgani aytgan, degani degan bo'lib, erka o'sgan yolg'iz qiz. Yosh, oilamizga ko'nikishi qiyin bo'lyapti, hali farzandli bo'lsalaring, quyilib qoladi, - derdi Asolat aya Abdumalikka nasihat qilib.

Bugungi voqea Abdumalikning sabr kosasini to'ldirdi. Tamannoning jizzakiligi, betgachoparlighi, tili zaharlighi, erini, qaynota, qaynonani sariq chaqaga olmasligiga tishini tishiga qo'yib, chidab kelardi. Ammo G'anisherning oldida g'ururi toptalgani jon-jonidan o'tirib ketdi: "Ketsa ketsin, daf bo'lsin". U yer yorilasa, yerga kirgudek bo'lib, mehmonxonaga o'tdi. Biroq G'anisher yo'q edi, u barcha gapni eshitgan, do'stini oldida xijolat chekishini istamay, allaqachon chiqib ketgandi.

Abdumalik yugurib ko'chaga chiqdi. Mashinalar g'izillab o'tib turar, biroq biror kimsa ko'rinmasdi. Abdumalik bekatga qarab yurdi, u yerda ham G'anisher ko'rinmasdi. U xuddi tush ko'rayotganday, boshiga birov cho'q'mor bilan urganday gandraklab, bekat o'ring'iga cho'kdi. Xayolida ertaga Tamanno bilan ajrashish haqida sudga beradigan arizasi charx urardi. Arizada ko'rsatiladigan ajrashish sabablari keradigan ortiq edi.

Tog'aymurod SHOMURODOV.



Kitob taqdimoti:

Do'stlik kunida do'stlar uchrashdi

A.S.Pushkin nomidagi viloyat axborot-kutubxonada 30-iyul - Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan adabiy kecha o'tkazildi.

Tadbir O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi, viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, viloyat tojik va tojikzabon milliy-madaniy markazi, viloyat "Zarafshon", "Самаркандский вестник" va "Ovozi Samarqand" gazetasi tahririylari hamkorligida tashkil etildi. Ishtirokchilar esa o'zbek, tojik, rus va boshqa millat vakillaridan iborat adabiyot ixlosmandlari bo'ldi.

Adabiy kechada Farmon Toshevning o'zbek va rus tilida chop etilgan "Yo'l - Put", jurnalist G'olib Hasanovning "Onamga qasida" kitoblari, shuningdek, viloyat "Ovozi Samarqand" gazetasini tahririylari tomonidan tojik va o'zbek tillarida nashr etilgan "Ovozi Samarqand: mashvarat, tashabbus, muvaffaqiyat" jurnali taqdimoti bo'lib o'tdi.

Tadbirida so'z olganlar tomonidan mamlakatimizda ayniqsa, viloyatimizda milliy bag'rikenglikka alohida e'tibor qaratilayotgani, asrlar davomida o'nlab xalq va millat vakil-



lari ushbu hududda yashab kelganligini, qolaversa, millatlararo do'stlikni mustahkamlash uchun xizmat qiladigan bu kabi adabiyotlar yozilayotgani alohida tilga olindi.

Yig'ilganlar Rustam Jo'raqulov rus tiliga tarjima qilgan "Yo'l - Put" qissasiga to'xtalar ekan, ushbu asarda adib inson hayotining qadri, mehr-oqibat, sabr-qanoat tarannum etilganini ta'kidladi. Bu dunyoda biror amal beiz ketmasligi, xuddi aks-sadodek insonning o'ziga qaytishi,

shuning uchun odamiylik hamisha ulug'lanishi aytildi.

"Onamga qasida" kitobi haqida iliq fikrlar bildirildi. Xususan, kitobda yozilishicha, har bir insonning onasi haqida aytadigan dil so'zlari, kechinmalari bor, lekin ular mohiyatan bir xil - onalarni ulug'lash, farzandlik mehri, sadoqatini ifoda etishga qaratilganligi bilan ahamiyatli.

"Ovozi Samarqand: mashvarat, tashabbus, muvaffaqiyat" jurnali fotoalbom ko'rinishida bo'lib, unda tahririylarining 2018-2022 yillardagi faoliyati aks ettirilgani aytiladi. Unda Samarqand tojik va tojikzabon milliy-madaniy markazi va tahririylar tashabbusi va do'stlar maslahati bilan o'tkazilgan tadbir hamda uchrashuvlar, aksiya va musobaqalar, gazeta jamoasining erishgan yutuqlari keltirilgan.

- Albatta, bu kabi uchrashuvlar biz kabi ijodkorlar uchun yangi g'oya va ijodiy namuna yaratishga imkoniyat bo'ladi, - deydi "Kattaqo'rg'on tongi" gazetasi muharriri Tohir Hamidov. - Kitobga oshno bo'lgan inson, albatta, yutadi, degani ham bejiz emas. Shu sababli bugungi kitoblar taqdimotidan kelib chiqib, yaratilgan ijod namunalarimizni kitob holida chop etishni, tahririylarimiz haqida alohida jurnal tashkil etishni reja qilib oldim.

Uchrashuv yakunida mualliflar tomonidan chop etilgan kitoblar va jurnallar tadbir ishtirokchilariga dastxatlar bilan tarqatildi.

Husan ELTOYEV,
Jasurbek SHUKUROV (surat).

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

1-AVGUST

Zaynab HAYDAROVA - 1951-yilda Narpay tumanida tug'ilgan. Fermer. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan paxtakor, «Do'stlik» ordeni sohibasi.

2-AVGUST

Abdurauif BOLTAYEV - (1909-1978) Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

6-AVGUST

Tohir NORQULOV - 1946-yilda Narpay tumanida tug'ilgan. Faxriy fotojurnalist. "Eng ulug', eng aziz" respublika tanlovi g'olibi.

Do'stmurod ABDULLAYEV - 1950-yilda Paxtachi tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Qahramoni.

MATBUOT UYI
Zarafshon
С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 452 nusxada chop etildi. Buyurtma 412. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririylarining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonaga manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda